

GANG OF ECOTOURISM AND ITS ROLE IN IMPROVING EDUCATIONAL EFFICIENCY

TECHMIND-2021

Mavlonova S.X
Maxammadiyev D.M
Sherqulov S.A
Alimammedova Z

JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE
maxammadiyev_d@gmailcom



Resume

In education places extra lessons are important for progressing pupils' scientific worldwvide, preparing to independent life, instructing hardiwork. In this thing ecotourism esessential.

Key words:

Entellectual, emotional, volitional, experiment, individualism, differencial, ecotorism, etnography, exhibiton, phenology, collection, herbarium, ethnography.

“Yangi narsa o'rganmaganingiz va ta'limingizga hech narsa qo'shmagan kuningiz yoki soatingizni omadsiz deb hisoblang.”

Ya.A.Komenskiy.

Hozirgi davrda maktabda umumiy o'rta ta'lim yo'nalishining muhim vazifasi - o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishni kuchli darajada rivojlantirish, ularda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, zarur amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish, mustaqil izlanishlarga qiziqishga yo'naltirish kabi muhim talablarni o'z ichiga oladi.

Shu nuqtai nazardan biologiya fanlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biologiya darslari, laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy ishlar talabalarni yovvoyi tabiat to'g'risida chuqur va mustahkam bilim bilan qurollantirishga, shuningdek, ularning tabiat haqidagi ilmiy va amaliy dunyoqarashlarini shakllantirishga imkon beradi. Biologiyani o'rganish davomida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ulari, estetik didlari oshadi, tabiatga bo'lgan muhabbati, uni muhofaza qilishga intilishi rivojlanadi. Ushbu vazifalarni bajarishda har bir biologiya o'qituvchisi tomonidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar muhim o'rin tutadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'quvchilarning qiziqishi va moyilli-gini hisobga olgan amalga oshiriladi. Shu bilan birga o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi.

Qiziqishning rivojlanishi - intellektual, hissiy va irodaviy elementlarni muayyan kombinatsiya va munosabatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, insonda qiziqishlar juda xilma-xil bo'ladi. Ular shaxsning individual xususiyatlariga, shuningdek, tashqi omillarning ta'siri (maktab, oila, o'rtoqlar, radio, televizor va boshqalar)ga bog'liqdir. Xo'sh, qanday qilib yosh avlodda tirik mavjudotlarga, ularni saqlash va ko'paytirishga g'amxo'rlik hissini uyg'otish kerak? Qanday qilib erta bolalikdan tabiatga, uning hosilalari - juda zaif o'simlik va hayvonot dunyosiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantirish kerak?

Bunda birinchi navbatda, o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini, amaliy ko'nikmalarini yaxshilaydigan va dunyoqarashlarini kengaytiradigan noan'anaviy ta'lim turlari (turli bayramlar, tematik kechalar, rolli o'yinlar, viktori-nalar va boshqalar) hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar katta yordam beradi

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar - bu o'quvchilarning darsdan tashqari o'zlarining ixtiyoriy soatlarini o'qituvchi rahbarligida ishlatish va o'zlarining bilimlari, intilishlari, qiziqishlari va ijodiy tashabbuslarini namoyon etish uchun biologiya bo'yicha maktab o'quv dasturini turli xil tashkil etish shakli hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ishlarining mazmuni faqat o'quv rejasi doirasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki asosan maktab o'quvchilarining qiziqishlari asosida tashkil etiladi, bu esa o'z navbatida biologiya o'qituvchisi zimmasiga ham katta ma'suliyat yuklaydi. Bunda, albatta, biologiya o'qituvchisining qiziqishlari ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, ko'pincha gulchilikka qiziqqan o'qituvchilar maktab o'quvchilarini xilma-xillikni o'rganish va manzarali o'simliklarni yetishtirish bilan shug'ullantirishadi, qushlar biologiyasiga qiziquvchi o'qituvchilar deyarli barcha sinfdan tashqari ishlarni ornitologik mavzularga bag'ishlaydilar. Sinfdan tashqari ishlar odatda turli shakllarda olib boriladi va ularning mazmuni dastur materialini bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Sinfdan tashqari topshiriqlarning natijalari biologiya darsida muhokama qilinadi va o'qituvchi tomonidan baholanadi (u sinf jurnaliga belgilar qo'yadi). Sinfdan tashqari ishlarga, masalan: "Urug" mavzusini o'rganishda o'quvchilarga berilgan urug'larning unib chiqishini kuzatish (6-sinf); artropodlar turini o'rganishda hasharotlarning rivojlanishini kuzatish bilan bog'liq topshiriqni bajarish yuklanadi (7-sinf). Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga o'quv dasturida nazarda tutilgan biologiya bo'yicha yozgi topshiriqlar (6 va 7-sinflar) hamda barcha amaliy xarakterdagi uy vazifalari kiradi. Bu mahg'ulotlar o'quvchi-larga darslarda olgan bilimlarini sezilarli darajada kengaytirish, tushunish va chuqurlashtirish, ularni doimiy e'tiqodga aylantirish imkonini beradi va avvalam-bor, darslarning ma'lum bir doirasi bilan cheklanmagan sinfdan tashqari ishlar jarayonida biologiya fanining asosiy usullari - kuzatish va eksperimentlardan foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biologik hodisalarni eksperiment-lari va kuzatuvlarini olib borish natijasida, maktab o'quvchilari to'g'ridan - to'g'ri idrok qilishlari asosida atrofdagi narsalar va hodisalar to'g'risida aniq tasavvurlarga ega bo'ladilar. Sinfdan tashqari ishlarda ta'limni individualizatsiya qilish va differentsial yondashuv osonlikcha amalga oshiriladi.

Biologiyadan, ekologiyadan, hozirgi paytda talab oshib borayotgan ekoturizmdan tashkil etiladigan to'garak ishlari, masalan, botaniklar, zoologlar, fiziologlar, genetik mutaxassislarini birlashtirishi mumkin. Ularning eng yaxshi ishlari, ko'rgazmalari biologiyadan sinfdan tashqari ishlarga qiziqishni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ularning tashkil etilishini biron bir biologik oqshom (yoki ta'til) bilan birgalikda, to'garakning yakuniy darsi va o'quv yilining boshlanishi bilan birgalikda tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'rgazmada mutaxassislarining kuzatuvlari, kundaliklari, tabiatda olingan fotosu-ratlar, kolleksiyalar va gerbariyalar, g'aroyib o'simliklar va boshqalar namoyish etilishi mumkin. Ko'rgazmalarga esa juda chiroyli nomlar qo'yish maqsadga muvofiq; masalan, "Tabiatning yozgi asarlari", "Kuz sovg'alari" va "Bahor nafosati" va boshqalar. Ko'rgazma uchun tanlangan eksponatlarga nomi va uning ijrochisi ko'rsatilgan yorliqlar ilova qilinadi.

Sinfdan tashqari dars shakllari o'qituvchining pedagogik ijodiy tashabbuskorligini namoyon qilish uchun ham, o'quvchilarning xilma-xil bilish faoliyatini amalga oshirish uchun ham va eng muhimi, ularni tarbiyalash uchun ham keng imkoniyat-lar ochib beradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda ijodkor-lik, tashabbuskorlik, kuzatuvchanlik va mustaqillik rivojlanadi, mehnat ko'nikma-lari va qobiliyatlarini egallaydi, individual fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, qat'iyat va mehnatsevarlikni shakllantiradi, o'simliklar va hayvonlar olami to'g'risida bilimlarni chuqurlashtiradi, atrof - tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undaydi, olingan bilimlarni amaliyotga joriy qilishga yordam beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlar tashabbuskorlik va jamoada ishlashni rivojlan-tirishga yordam beradi.

Bulardan tashqari, o'quv maskanlarida tabiiy fanlardan tashkil etiladigan tabiatdagi darsdan tashqari ishlarda asosan, morfologiya, ekologiya va sistematikaga doir hodisalarni aniqlashga va gerbariy hamda kolleksiyalar tayyorlashga yordam beradigan kuzatishlar uchun topshiriqlar beriladi. Ular ham asosan yozda bajariladi va shuning uchun ko'pincha yozgi topshiriqlar deb ataladi. Yoz davomida V sinf o'quvchilariga poya, ildiz va barglari har xil shakldagi o'simliklarni yig'ish; VI sinf o'quvchilarga madaniy va yovvoyi o'simliklarni yig'ish va gerbariy tayyor-lash; VII sinf o'quvchilariga hayvonlar ustida kuzatish olib borish, hasharotlardan kolleksiyalar tayyorlash kabi topshiriqlar beriladi. Ushbu topshiriqlar ichida o'simliklarni hamda

ular da yashaydigan hasharotlarni, ular yetkazgan zararlarni, ularning rivojlanish fazalarini ko'rsatadigan biologik kolleksiyalar katta ahamiyat-ga ega. Bular ichida ayniqsa, V, VI va VII sinflarda sistematik ravishda olib borila-digan fenologik kuzatishlar alohida o'rin tutadi. Bunda o'quvchilar har kuni kundaliklariga tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni yozib boradilar. O'simlik va hayvonot dunyosida olib boriladigan fenologik kuzatishlar ob-havoning holati bilan bog'langan holda olib boriladi. Bulardan tashqari elementar metrologik kuzatishlar olib borilishi mumkin. Bu kuzatish ma'lumotlari o'simliklar va hayvonlarning rivojlanishi hamda hulq-atvori bilan taqqoslanadi.

Yuqorida bayon etilgan mashg'ulotlarning barchasini dars jadvaliga kiritib bo'lmaydi va shuning uchun ta'lim muassasalarida ekoturizm to'garagini yo'lga qo'yish bu borada samarali hisoblanadi. Bu ta'lim muassasalarida darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'qitish davomida o'quvchilarning tabiiy fanlardan olgan bilim-larini boyitish hamda fan asoslaridan olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkam-lash bilan birga joylarda ekoturizmni rivojlantirishga ham sezilarli ta'sir etadi.

Ekoturizm to'garagining dasturuni va mavzularini tanlashda to'garak tashkil etilayotgan hududning tabiiy iqlim sharoiti, qo'riqlanadigan hududlari, tabiiy maskanlari, o'simliklar va hayvonot olami, ularning noyob turlari hamda ekoturistik inshootlari, etnografiyasi va tarixi haqidagi ma'lumotlari hisobga olinishi lozim. Buni biz quyidagi jadvalda taxminiy ko'psatib o'tamiz.

Ekoturizm to'garagining mavzulari bo'yicha soatlar taqsimoti.

	Mavzular	Mashg'ulotlar miqdori, soati		
		Jami	Nazariy	amaliy
1	Ekoturizmning rivojlanish tarixi	2	2	
2	Ekoturizmning ahamiyati	2	2	
3	Hududning geografik holati va ekoturistik imkoniyatlari	2	2	
4	Ekosayohatlar tashkil etish texnologiyalari	6	2	4
5	Ekologik so'qmoqlar tashkil qilish texnologiyasi	8	2	6
6	Ekoturizmni rivojlantirishda maxsus qo'riq-lanadigan hududlarning ahamiyati	4	4	
7	Ekologik amaliyot	10	4	6
8	Ekologik o'yinlar	6	2	4
	Jami:	40	20	20

Ko'rinib turibdiki, jadvalda ushbu mavzular taqsimotida 40 soatlik darsdan tashqari mashg'ulotlar, boshqacha aytganda, to'garakda tashkil etiladigan mashg'ulotlar mavzulari ko'rsatilgan bo'lib, bunda "Ekoturizmning rivojlanish tarixi" mavzusida asosan, ushbu sohaning vujudga kelish tarixi va uning O'zbekistondagi rivojlanish tarixiga e'tibor qaratiladi. "Hududning geografik holati va ekoturistik imkoniyatlari" mavzusida har bir viloyat yoki tumanda mavjud alohida qo'riq-lanadigan hududlar, ulardagi o'simliklar va hayvonot olami haqida ma'lumotlar o'rganiladi. "Ekoturizmning ahamiyati" mavzusida esa ushbu yo'nalishning insonlar hayoti, farovonligi va tabiat muhofazasidagi ahamiyati bilan birga ekoturistik tashrif davomida tabiatga yetkaziladigan zararlari va ulardan himoyalani sh omillari tahlil etiladi. "Ekosayohatlar tashkil etish texnologiyasi" mavzusida esa ekologik sayohatlarni tashkil etishdagi qonun - qoidalar, ya'ni, sayyohlarning tabiat qo'ynida o'zini tutishi, qatorda yurish, dam olish joylarini tanlash, gulxan yoqish, kuzatish va kundalik yuritish, xaritalar bilan ishlash va x.k. larga ko'nikmalarni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda shakllantirish ko'zda tutilgan.

Ekoturizmni yo'lga qo'yishda asosiy omillardan biri - ekologik so'qmoqlar tashkil etish va ekologik so'qmoqlar bo'ylab sayr etish hisoblanadi. Shuning uchun turizm to'garaklarini tashkil etishda "Ekologik so'qmoqlar tashkil qilish texnologiyasi" mavzusiga alohida e'tibor qaratiladi. Ekoso'qmoqlarning ahamiyati, ekologik inshootlar va ekoso'qmoqlarning jihozlari haqidagi

ma'lumotlarning ekoso`qmoqlarning pasportida aks ettirilishi va talab darajasida rasmiylashtirilish tartiblari o`rganiladi.

Ekoturizmni yo`lga qoyishda alohida qo`riqlanadigan hududlarning o`rni, ekologik amaliyot va ekologik o`yinlar mavzusida hududning alohida qo`riqlanadigan joylari haqida batafsil ma'lumotlar berilishi barobarida, ularga bog`liq ma'lumotlardan foydalangan holga ekologik amaliyot mavzulari va oyinlari ishlab chiqiladi. Bu to`garak ishtirokchilarining mashg`ulotlarga bo`lgan qiziqishlarini orttirish bilan birga hududdagi o`simliklar va hayvonlar haqida ko`proq bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishlariga asos bo`lib hizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqorida bayon etilgan sinfdan va darsdan tashqari to`garaklar va mashg`ulotlar tashkil etishdan maqsad o`quv muassasalarida o`quvchilarning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularda tabiatga hurmat bilan munosabatda bo`lish tuyg`usini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko`nikmasini rivojlantirish, mehnatsevarlikka o`rgatish, mustaqil hayotga o`rgatish kabi yaxshi sifatlarini tarbiyalashdan uborat bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O`zbekiston. 2009. - 40 b.
2. O`zbekiston Respublikasining "Turizm to`g`risida"gi qonuni. -O`zbekistonning yangi qonunlari. T. 22. -T.: Adolat, 2000. -131-140 b.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №346 1998 yil 8 avgustda qabul qilingan "Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish to`g`risida"gi farmoyishi. //Xalq so`zi, 1998 yil 9 avgust.
4. Хамидов О.Х. Ўзбекистоннинг экотуристтик салоҳияти. Монография.-Т.: ФАН. 2010. - 119 б.
5. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - С.Пб.: Издательский Торговый Дом «Герда». 2004. -444 с.
6. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 415 стр.
7. Норчаев А. Халқаро туризм. Ўқув қўлланма. -Т.: ТДИУ. 2007. - 235 б.
8. Основные показатели развития туризма в 2010 г. ВТО. – Мадрид. 2010. -30 с.
9. www.interunion.ru – туристские ассоциации
10. www.world-tourism.org – Всемирная туристская организация
11. www.zaamin.uz- Zomin turistik zonasi haqidagi ma'lumotlar
12. www.ecoturizm.uz-Jizzax viloyatining turizmiga bag`ishlangan